

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Rus tili va adabiyoti kafedrasining

2025 yil 25 oktabrdagi 3 sonli yig'ilish bayonnomasi

2025 yil 25 oktabr

Denov tumani

Yig'ilish raisi: Choriev J.G. — p.f.f.d. (PhD), rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri

Kotib: S.X. Xusanova

Qatnashdilar:

rus tili va adabiyoti kafedrasining 23 nafar professor-o'qituvchilari

Kun tartibida:

Kafedra professor-o'qituvchilarining ochiq darslarini muhokama qilish.

Eshitildi:

Rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri Choriev J.G. so'zga chiqib, bugungi yig'ilishda rus tili va adabiyoti o'qituvchisi Tursoatov A.A. tomonidan 2024 yil 28 oktyabr kuni o'tkazilgan

«Женская проза» mavzusidagi ochiq dars muhokama qilinishini ma'lum qildi.

Ochiq darslarni tashkil etish bo'yicha kafedra o'qituvchisi Mirzakulov O'.A. so'zga chiqib, 2025 yil 28 oktyabr kuni Tursoatov A.A. tomonidan 4-bosqich, 401-402 guruhlarida **“Hozirgi adabiy jarayon”** fanidan ochiq maruza darsi tashkil etilganini aytdi. U o'qituvchi darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rganini ta'kidladi. Talabalar uning rahbarligida mustaqil fikr yuritishdi, o'quv vazifalarini bajardilar, tahlil qildilar, umumlashtirdilar va xulosalar chiqardilar. Bu jarayon ularda ongli va barqaror bilim shakllanishiga xizmat qildi. Dars ijodiy ruhda o'tdi.

Darsda turli faoliyat turlari qo'llanildi: individual ish, slaydlar bilan ishlash, kartochkalar orqali mashg'ulotlar. “Klaster”, “Nima uchun?”, “Baliq skeleti” kabi metodlar samarali qo'llanildi.

Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi Sattorov B.B. ta'kidlashicha, o'qituvchi ham, guruh ham darsga yaxshi tayyorlangan. Yangi mavzu oldingi darslarda olingan bilimlar asosida o'zlashtirildi. Topshiriqlar shakl va mazmun jihatidan xilma-xil bo'lgan. Darsda multimediya taqdimotidan foydalanilgan, talabalar mustaqil ishlari va o'zaro tekshirish usulidan foydalangan. Ushbu dars belgilangan maqsadlarga to'liq erishgan.

O'qituvchi Samadov X.N. o'z chiqishida, tanlangan metod va vositalar dars mazmuni va maqsadiga to'liq mos kelganini, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar — tizimli-faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tanqidiy fikrlash metodlari samarali qo'llanilganini ta'kidladi.

Yig'ilish yakunida Tursoatov A.A. so'zga chiqib, barcha qatnashchilarga minnatdorchilik bildirdi va ochiq dars bo'yicha berilgan takliflar hamda metodik tavsiyalarni inobatga olishini ma'lum qildi.

QAROR QILINDI:

1. Professor-o'qituvchilarning fikr va takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin hamda ijroga yo'naltirilsin.
2. Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi Tursoatov A.A. tomonidan o'tkazilgan "Женская проза»" mavzusidagi ochiq dars ijodiy baholansin.

Yig'ilish raisi:
Kotib:



Choriev J.G.
S.X. Xusanova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Rus tili va adabiyoti” kafedrasining o‘qituvchisi,
A.A.Tursoatovning 60111700 – Rus tili o‘zga tilli guruhlarda
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs 401-402guruhlarida Hozirgi adabiy
jarayon fanidan «Женская проза» mavzusida tayyorlangan
2 (ikki) soatlik ochiq ma’ruza dars ishlanmasiga tashqi

T A Q R I Z

60111700 - Rus tili o‘zga tilli guruhlarda ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga rus adabiyotida ayol adiblar ijodi, yo‘nalish haqida chuqur tushuntirib, tahlil qilishdan iboratdir.

Mazkur ochiq ma’ruza dars ishlanmasi rus adabiyotida ayol adiblar ijodining ayniqsa ularning asarlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, dars jarayonining mazmuni, metodik yondashuvi hamda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi bilan e’tiborga loyiqdir.

Dars ishlanmasida **maqsad, vazifalar, kutilayotgan natijalar** aniq belgilangan, talabalarda badiiy matnni tahlil qilish, qahramonlar xarakterini ochib berish, asardagi falsafiy g‘oyalarni anglash va o‘z fikrini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgani ko‘rinadi.

O‘quv mashg‘ulotida interfaol metodlar, jumladan “Aqliy hujum”, “Qora quti”, “So‘zlarni top”, “Rolga kirish” kabi usullardan foydalanilgani talabalarining darsga faol jalb qilinishiga erishgan. Talabalarining guruhlarda ishlashi, asosiy obrazlar — Kichkina shahzoda, Uchuvchi, Tilki, Qirol sayyorasi aholisi kabi personajlar timsolida berilgan falsafiy ma’nolarni tahlil qilishi darsning samaradorligini oshirgan.

Dars jarayonida multimediali taqdimot, asardan olingan iqtiboslar, muallif hayotiga oid tarixiy faktlar va rasmlar qo‘llangani talabalarda vizual tasavvur hosil qilishga xizmat qilgan. Shuningdek, o‘qituvchining mavzuni talabalarga teng suhbatdoshlik ruhida yetkazishi darsni yangicha pedagogik yondashuv asosida o‘tganini ko‘rsatadi.

Ma’ruza davomida talabalarga ijodiy topshiriqlar — yo‘nalishga muqobil yakun yaratish, asarlaridagi ramziy ma’nolarni izohlash kabi vazifalar berilgani ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirgan.

Umuman olganda, taqdim etilgan ochiq ma’ruza dars ishlanmasi DTS talabalaridan kelib chiqib, ilmiy-uslubiy talablarga javob beradi, mavzuning mazmuni chuqur ochilgan, darsning har bir bosqichi metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan. Mashg‘ulot talabalarda nafaqat badiiy matnni anglash, balki insoniy qadriyatlar, mehr, mas’uliyat, do‘stlik va sadoqat haqidagi tushunchalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Rus tili va adabiyoti” kafedrasining o‘qituvchisi, A.A.Tursoatovning 2 (ikki) soatlik ochiq ma’ruza dars ishlanmasi oliy ta’lim o‘quv jarayonida amalda foydalanishni tavsiya etilgan.

/Taqrizchi: p.f.f.d. (PhD),  fakulteti dekani

Musurmankulova M.N.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Rus tili va adabiyoti" kafedrasining o'qituvchisi,
Tursoatov A.A.ning 60111700 – Rus tili o'zga tilli
guruhlarda ta'lim yo'nalishi 4-kurs 401-402guruhlarda
Hozirgi adabiy jarayon fanidan "Женская проза" mavzusida
tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq ma'ruza dars ishlanmasiga
ichki

T A Q R I Z

Hozirgi kunda nafaqat talabalarni, balki oz'ini mukammal insoniylik fazilatlariga ega bo'lishga intilgan insonni badiiy asar mutoalasisiz, uning mushohadasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu dolzarb masalalarni ko'zlab tayyorlangan mazkur «Женская проза» mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq seminar dars ishlanmasi oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini samarali tashkil etish talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda darsning maqsad va vazifalari, kutilayotgan natijalar hamda amaliy yondashuvlar aniq belgilangan. Dars mazmunining tanlanishi —«Женская проза» — talabalarda badiiy tafakkur, mazmuniy tahlil va falsafiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishlanmada o'quv jarayonining bosqichlari metodik jihatdan to'g'ri qurilgan, darsning motivatsion, nazariy, amaliy va yakuniy qismlari o'zaro bog'liq va mantiqan izchil. Interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Qora quti", "So'zlarni top", rolli vaziyatlar)ning qo'llanilishi talabalarning mavzu bo'yicha mustaqil fikr yuritishiga va darsda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

O'quvchilarning ijodiy topshiriqlari orqali asardagi ramzlar, obrazlar tizimi, muallifning falsafiy qarashlari bilan bog'liq tahliliy faoliyatni amalga oshirishi darsning amaliy yo'nalishini mustahkamlaydi. Shuningdek, multimedia vositalarining qo'llanilishi mavzuning vizual idrok etilishini osonlashtiradi.

A.A.Tursoatov tomonidan tayyorlangan dars ishlanmasi mazmunan to'liq, ilmiy-uslubiy jihatdan asosli va amaliy mashg'ulot standartlariga mos tarzda tayyorlangan. U talabalarning estetik didini, badiiy matnni anglash kompetensiyasini va ma'naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodik material sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa: dars ishlanmasi ichki ekspertiza talablari bo'yicha ijobiy baholanadi hamda oliy ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Rus tili va adabiyoti" kafedrasining mudiri

dotsent, p.f.f.d.(PhD)



J.G'.Choriyev